



Inklyuziv ta'limni tashkil etishda psixologik yondashuv tamoyillari

Qutimova Malohat To'liboyevna

Xorazm viloyati, Gurlan tumani

42-maktab amaliyotchi-psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tushunchasiga psixologik yondashuv qonunchilik hujjatlariga asoslangan holda, muallifning shaxsiy tajribalariga tayanib tadqiq etilgan. Imkoniyati cheklanganlik shaxs uchun to'siq emas, balki qo'shimcha imkoniyatga ega bo'lish vositasi ekanligi muayyan shaxs misolida yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, UNICEF, standart va mexanizmlar, rag'batlantirish tamoyili, xatolar ustida ishlash ko'nikmasi, integratsiya.

Аннотация: В данной статье психологический подход к понятию инклюзивного образования исследуется на основе правовых документов, основанных на личном опыте автора. Сделана попытка подчеркнуть тот факт, что инвалидность не является препятствием для человека, а средством обретения дополнительных возможностей.

Ключевые слова: инклюзивное образование, ЮНИСЕФ, стандарты и механизмы, принцип мотивации, умение работать над ошибками, интеграция.



Abstract: In this article, the psychological approach to the concept of inclusive education is researched based on legal documents, based on the author's personal experiences. An attempt was made to highlight the fact that disability is not an obstacle for a person, but a means of gaining additional opportunities.

Key words: inclusive education, UNICEF, standards and mechanisms, the principle of motivation, the ability to work on mistakes, integration.

Barchamizga ma'lumki, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yoshlarning ilm cho'qqilarini zabt etishga bo'lgan ishtiyoqi ham ortib bormoqda. Ammo ular orasida ayrim toifa vakillarining cheklanganlik muammosi qolgan imkoniyatlarni to'sib qo'ymoqda. Xo'sh, hozirgi kunda ilgari surilayotgan inklyuziv ta'lim tushunchasi nechog'liq samara bermoqda?

Inklyuziv ta'lim haqida to'xtalishdan oldin, bu terminni izohlab o'tish lozim. "Inklyuziv" so'zi inglizcha "inclusive"dan olingan bo'lib, "o'z ichiga qamrab olmoq" degan ma'noni bildiradi. Bu keng ma'noda imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ham odatiy ta'lim jarayonlariga qamrab olishni ko'zda tutadi. Xususan, UNICEF hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi inklyuziv ta'lim bo'yicha yangi yo'riqnomalar, standartlar va mexanizmlar sinovdan o'tkaziladigan inklyuziv maktablarni modellashtirishni boshladilar. Bu inklyuziv ta'lim sifatini yanada yuqori standartlarga ko'tarishga qaratilgan yangi qonunchilik va siyosatni ishlab chiqish uchun ma'lumot beradi. O'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha boshqa tashabbuslarni to'ldirgan holda bunday maktablarning ilg'or tajribalari o'rganiladi va tadbiq etiladi.

Darhaqiqat, mazkur jarayonning alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihati borki, bu ham bo'lsa bolalarning ruhiyatiga shikast yetkazmagan holatda, boshqalarning ularga bo'lgan munosabatini to'g'ri shakllantirish masalasidir. Bu o'rinda psixologik yondashuv



tamoyillari yaqinda yordam beradi. Psixologik yondashuv tamoyillari deganda, bolaning sog'lom jamiyat bilan integratsiyasini ta'minlashda amalga oshiriladigan jarayonlar tushuniladi. Bular:

1. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni boshqalar bilan teng tutish. Ya'ni bee'tibor bo'lmaslik va haddan ziyod e'tibor qaratmaslik.
2. Ularning o'ziga xos xususiyatini ta'kidlash. Bunda mavjud nuqson ikkinchi darajaga tushadi.
3. Boshqalar qiladigan vazifalarni (garchi uddalashga qiynalsalar ham) berish. Navbatchilik, stulni to'g'irlash, tanaffus payti yoki darsda ehtiyoj yuzasidan xonani tark etish va.h.k.
4. Kezi kelganda rag'batlantirish, xato qilsa tanbeh berish. Agar ularning faqat ijobiy tomonlari e'tirof qilinsa, kelajakda shaxs sifatida salbiy xulq-atvorga ega bo'lishlari mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda o'z auditoriyaga ega bo'lib ulgurgan Mirali G'iyosov, ko'zi ojizlar bo'lishiga qaramasdan dunyoning ko'pgina mamlakatlarida o'tkazilagan AKT sohasidagi forumlarda O'zbekiston nomidan ishtirok qilib kelmoqda. Uning tashabbusi bilan ko'rish qobiliyatida nuqsoni borlar uchun kitob.plus ilovasi yaratilgan. Mazkur dastur o'z ichiga minglab audio kitoblarni qamrab oladi. Ahamiyatlisi, ularning barchasi , aynan, Mirali G'iyosov tomonidan montaj qilingan, ishlov berilib, tayyor holga keltirilgan. Bu muvaffaqiyatlarning asosiy sababi, imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramasdan, insonga o'zgalarga qaratiladigan e'tiborni berish va jamiyat bilan aralashuvini amalga oshirishdir.

Yuqoridagi ma'lumotlarga dalil o'laroq, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qaror qabul qilindi. Hujjat 13.10.2020 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada



takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan.

2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;

-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar. Qaror bilan Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Unda quyidagilar belgilandi:

inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari;

-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi;

-o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi;



-inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish chora-tadbirlari.

Xulosa qilib aytganda, insonlar tug'ilishiga ko'ra xilma-xil bo'lishlari mumkin, biroq ularning umumiy xususiyatlarga egaligini inobatga olib birdek munosabatda bo'lish va boshqalar qatori ta'lim olishini ta'minlash muqaddas burch sanaladi. Bu nafaqat ularning inson sifatidagi huquqi, balki boshqalarning insoniylik belgisidir.